ADABIYOTSHUNOSLIK

UDK: 81'373.62(574)(075.8) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a122**

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI FE’L SEMANTIK KATEGORIYALARI BO‘YICHA TUZILGAN GRADUONIMIK QATORLARLARNING O‘XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

СХОДНЫЕ И РАЗЛИЧНЫЕ АСПЕКТЫ ГРАДУОНИМИЧЕСКИХ РЯДОВ, ОБРАЗОВАННЫХ НА ОСНОВЕ СЕМАНТИЧЕСКИХ КАТЕГОРИЙ ГЛАГОЛА В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

SIMILARITY AND DIFFERENCES ASPECTS OF GRADUONIMIC SERIES FORMED BY SEMANTIC CATEGORIES OF VERBS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Otaboyeva Mazmuna Rahimovna[1]

[1]Otaboyeva Mazmuna Rahimovna – Qo‘qon davlat pedagogika instituti, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek va ingliz tillarida fe’llar graduonimiyasinini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarning namunasi sifatida taqdim etilgan bo‘lib, unda chog‘ishtirilayotgan tillardagi fe’llar semantik kategoroyalari bo‘yicha hosil qilingan graduonimik qatorlarning o‘xshash va farqli jihatlari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada o‘zbek tilidagi harakat fe’llari, nutq fe’llari, holat fe’llari, tafakkur fe’llari, natijali faoliyat fe’llari semantik kategoriyalari hamda ingliz tilidagi harakat fe’llari, tafakkur fe’llari, sabab fe’llari, sodir bo‘lish holati fe’llari, aspect fe’llari kabi ma’noviy guruhlarga ajratilgan holda fe’llar izohli lug‘atlardan tahlilga tortilib, ularning ma’nodoshlari va qarama-qarshi ma’nolilari ishtirokida darajalanish qatorlari hosil qilingan. Tuzilgan graduonimik qatorlar har ikki tillardagi ekvivalentlari o‘zaro chog‘ishtirilgan. Chog‘ishtirma tahlillar natijasida o‘zbek va ingliz tillarida o‘zaro ma’no jihatdan o‘xshash, farqli yoki umuman unikal bo‘lgan darajalanish qatorlari aniqlandi. Natijada o‘zbek va ingliz tillarida fe’llardan hosil qilingan darajalanish qatorlari chog‘ishtirilganda ingliz tilidagi qatorlarda a’zolar soni nisbatan ko‘proq ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shu bilan bir qatorda o‘zbek tilida gender xususiyatga ega bo‘lgan so‘zlar ishtirokida tuzilgan darajalanish qatori mavjudligini, bunday darajalanish qatori ingliz tilida yo‘q ekanligi aniqlandi.

Аннотация

Данная статья представлена как пример исследования по изучению градуонимии глаголов в узбекском и английском языках, а также сходных и различных аспектов градуонимического ряда, образованного по семантическим категориям глаголов в сравниваемых языках. Также в статье обсуждаются семантические категории глаголов действия, глаголов речи, глаголов состояния, глаголов мысли, глаголов действия результата в узбекском языке и глаголов действия, глаголов мысли, глаголов причины в английском языке. Глаголы разделены на семантические группы, такие как, глаголы состояния возникновения, глаголы вида были проанализированы из толковых словарей и построены ранговые ряды с участием их синонимов и противоположных значений. Построенные градуонимические ряды чередуются с их эквивалентами в обоих языках. В результате перекрестного анализа было установлено, что в узбекском и английском языках есть похожие, разные или совершенно уникальные градационные линии. В результате при сравнении градационных рядов, образованных от глаголов в узбекского и английского языках, было установлено, что количество членов градуонимических рядов в английском языке относительно больше. Кроме того, установлено, что в узбекском языке есть градационный ряд с наличием родовых слов, в английском такого градационного ряда нет.

Abstract

This article is presented as an example of research on the study of the graduonymy of verbs in the Uzbek and English languages, and the similar and different aspects of the graduonymy series formed according to the semantic categories of the verbs in the languages being compared. cited. Also, in the article, the semantic categories of verbs of action, verbs of speech, verbs of state, mental verbs, action verbs of result in Uzbek and verbs of action, mental verbs, verbs of reason in English Verbs were separated into semantic groups such as verbs, verbs of the state of occurrence, aspect verbs, and the verbs were analyzed from the explanatory dictionaries, and graduonymic rows were created with the participation of their synonyms and opposite meanings. The constructed graduonymic series are interspersed with their equivalents in both languages. As a result of the cross-sectional analysis, it was found that there are similar, different or completely unique gradation lines in the Uzbek and English languages. As a result, when comparing the graduonymic rows formed from verbs in the Uzbek and English languages, it was found that the number of members in the English language lines is relatively larger. In addition, it was found that in Uzbek language there is a graduonymic rows with the presence of gendered words, such a graduonymicseries does not exist in English.

Kalit so‘zlar: *graduonimiya, darajalanish qatorlari, semantik kategoriya, fe’llar, harakat fe’llari, munosabat fe’llari, nutq fe’llari, holat fe’llari, ma’noviy guruhlar.*

Ключевые слова: *градуонимия, градационный ряд, семантическая категория, глаголы, глаголы действия, глаголы отношения, глаголы речи, глаголы состояния, семантические группы.*

Key words: *graduonymy, graduonymic rows, semantic category, verbs, action verbs, relationship verbs, speech verbs, state verbs, semantic groups.*

KIRISH

Turli tizimli tillardagi harakat va holatni ifodalalovchi leksemalar graduonimiyasiga to‘xtalar ekanmiz, tadqiqotimiz davomida o‘zbek va ingliz tillaridagi o‘xshash tomonlar bilan birga farqli tomonlar ham talaygina ekanligini aniqladik. Tadqiq etilayotgan har ikki tildagi fe’lning ma’noviy turlari ichida bir-biriga mos bo‘lgan yoki umuman farqli bo‘lgan guruhlar mavjudligi ma’lum bo‘ldi.

O‘zbek tilidagi *natijali faoliyat fe’llari* bilan ingliz tilidagi *sabab fe’llarini (causative verbs)* ba’zi o‘rinlarda ma’nodosh deb qarash mumkin. SHuningdek, mavjudlik va aloqadorlik (verbs of existence and relationship) fe’llari anglatgan ma’no o‘zbek tilidagi holat fe’llari ifodalaydigan ma’nolarga yaqinligi bilan xarakterlanadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi fe’l semantik guruhlarini ushbu bobda o‘zaro taqqoslab, o‘xshash va farqli tomonlarini tahlil etamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ingliz tilidagi *causative verbs* (sabab yoki ta’sir fe’llari) semantik guruhi o‘zbek tilida mavjud emas. Bu guruhdagi fe’llar o‘zbek tilidagi holat fe’llariga to‘g‘ri keladi. Ushbu guruhga kiruvchi *cause* fe’li va uning sinonimlari yordamida ko‘ngilsiz holatlarga sabab bo‘lishning kuchayib borishiga ko‘ra: *cause→bring on→precipitate→provoke* darajalanish qatori tuzilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida *uyg‘otmoq→harakatga keltirmoq→g‘ashiga tegmoq/jahlini chiqarmoq→qo‘zg‘atmoq→qonini qaynatmoq* darajalanish qatori hosil qilinadi. Ingliz tilidagi darajalanish qatori o‘zbek tilidagiga nisbatan a’zolarining kamligi va teng kuchli ma’nodoshlari keltirilmaganligi bilan farqlanadi. Ingliz tilidagi darajalanish qatorida 4 ta a’zo, o‘zbek tilida esa 5 ta a’zo ishtirok etadi. Bundan tashqari, *cause* fe’li qatnashmasa ham, uning sinonimlari anglatgan ma’nolariga tayanib, biror ish, g‘oya yoki jarayonning kelib chiqishidan to natija sodir bo‘lguniga qadar ingliz tilida: *create→produce→result in* graduonimik qatori tuzildi va o‘zbek tilida *yaratmoq/ijod qilmoq→tadbiq etmoq→ishlab chiqarmoq* darajalanish qatori keltirildi. O‘zbek va ingliz tillaridagi graduonimik qatorlar bir xil, ya’ni 3 a’zolik bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi qatorning bittasi teng kuchli ma’nodosh fe’l hisobiga farqlanadi.

Ingliz tilidagi sabab yoki ta’sir fe’llari guruhiga kiruvchi *demand* va unga o‘zbek tilidagi ma’nodosh *talab qilmoq* fe’llari ishtirokida graduonimik qatorlar hosil qilingan-da, istak va talabning kuchayib borishi bo‘yicha: *expect → ask for → want → desire → being need of → necessitate → require → need→insist on – order/demand→command;* o‘zbek tilida esa: *umid qilmoq → kutmoq→xohlamoq/istamoq →so‘ramoq →buyurmoq →talab qilmoq* qatorlari tuziladi. Har ikki tilda berilgan darajalanish qatorlarini solishtiradigan bo‘lsak, ingliz tilidagi darajalanish qatori a’zolari sonining ortiqligi bilan farqlanib, unda 10 ta a’zo va bittasida teng ma’noli so‘zning mavjudligi inobatga olinsa, jami 11 ta so‘z ishtirok etadi. O‘zbek tilida esa 7 ta fe’l qatnashib, ulardan 6 tasi darajalanish qatorini hosil qiladi.

Ingliz tilidagi sodir bo‘lish holati fe’llari (verb of occurence) guruhi, o‘zbek tilida bunday nomlangan fe’l ma’noviy guruhi mavjud bo‘lmasa-da, ushbu guruhga kiruvchi fe’llar ma’nolariga ko‘ra o‘zbek tilidagi holat fe’llariga mos kelishi aniqlandi. Bu guruh fe’llarida darajalanish hodisasini kuzatish juda qiyin bo‘lib, bu holat ulardagi kontekstual va leksik sinonimlarning chalkashtirilishiga olib kelishi mumkinligi bilan izohlanadi. Shunday bo‘lsa-da, bu guruhga kiruvchi *occur* fe’li va uning sinonimlari tezaurus hamda lug‘atdagi berilgan izohlariga murojaat etildi. Sodir bo‘lish holati fe’llariga kiruvchi boshqa fe’llar bilan birgalikda, biron-bir g‘oyaning paydo bo‘lib, rivojlanib, ro‘yobga chiqishiga ko‘ra: *come to mind→ grow/develop→happen/occur* darajalanish qatori hosil qilindi. O‘zbek tilida ushbu darajalanish qatoriga *tasavvur qilmoq→gavdalantirmoq→aks ettirmoq* va *hayoliga keltirmoq→ o‘ylamoq→amalga oshirmoq* kabi ikkita darajalanish qatori taqdim etildi. Xullas, har ikki chog‘ishtirilayotgan tillardagi darajalanish qatorlari 3 a’zolik ekanligi bilan o‘xshash bo‘lsa-da, ingliz tilida 5 ta fe’l qatnashib ulardan 2 tasi teng kuchli ma’noga ega va o‘zbek tilida ushbu sema bo‘yicha ikkita darajalanish qatori tuzilganligi bilan farqlanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ingliz tilida mavjudlik yoki munosabat fe’llari (verbs of existence or relationship) ma’noviy guruhi ham o‘zbek tilida mavjud emas. Bu guruhga kiruvchi fe’llar stilistik va kontekstual sinonimlarga egaligi sababli ular orasida darajalanish kuzatilmaydi. Shunday bo‘lsa-da, bu guruh va boshqa semantik guruhga mansub fe’llar bilan ham darajalanish qatorini tuzish mumkin.

Masalan, *live* fe'lining antonimi bo‘lgan *die (o‘lmoq)* fe'li sodir bo‘lish holati fe'llari (verb of occurence) guruhiga kiradi, ushbu fe'ldan foydalanib, tiriklikning boshlanishidan tugashiga qadar ifodalovchi *be born→ live→ die* darajalanish qatorini hosil qiladi. Ingliz tilida turli semantik guruhlararo darajalanish hodisasi sodir bo‘ladi, biroq bu holat o‘zbek tilida kuzatilmaydi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Ingliz tilidagi aspekt fe'llari guruhiga kiruvchi *continue* fe'li va uning sinonimlari orasidan davomiylikni saqlab qolinishiga ko‘ra*: pursue→ keep on →go on →persist →continue → persevere→keep at* darajalanish qatori hosil qilinadi. O‘zbek tilida davomiylikni ifoda etuvchi alohida leksemalar mavjud emasligini hisobga olgan holda, bunday darajalanish qatori tuzishning imkoni yo‘q.

O‘zbek tilida darajalanish qatorlari fe'l nisbatlari qo‘shimchalarini olib, ma'no jihatdan o‘zgaradi, ya'ni a*ldamoq → avramoq→ laqqa tushirmoq* va *aldanmoq → avranmoq → laqqa tushirmoq* kabi qatorlar. Ingliz tilida faqatgina ikkita nisbat − aniq va majhul nisbatlar mavjudligi inobatga olinadigan bo‘lsa, bunday o‘zgarish chog‘ishtirilayotgan tilda kuzatilmadi.

Turli tizimli tillar hisoblangan o‘zbek va ingliz tillarida fe'llar graduonimiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillar har ikki qiyoslanayotgan tillardagi o‘ziga xos jihatlarni atroflicha o‘rganishga va mavjud farqli tomonlarni tarjimada va lug‘atlar tuzish jarayonida qo‘llash uchun taklif sifatida havola qilishga harakat qilindi.

XULOSA

Sabab yoki ta'sir fe'llari *(causative verbs*), sodir bo‘lish holati fe'llari *(verbs of occurence)*ni anglatadi. O‘zbek tilidagi nutq fe'llari insonning gapirishi bilan bog‘liq leksemalarni o‘z ichiga oladi, ingliz tilidagi muloqot fe'llari (communication verbs) qisman nutq fe'llari bilan ma'nodosh bo‘lsada farqli jihatlari mavjuddir.

O‘zbek va ingliz tillarida fe'llarda graduonimik qatorlar tuzishdagi qator a'zolari soni, teng ma'nodoshlari mavjudligi, har ikki tilda ekvivalentlari borligi kabi o‘xshash va farqli jihatlari ko‘rsatib berildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Djumabaeva J. O‘zbek va ingliz tillarida leksik graduonimiya. Monografiya. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2014. – B.15.
2. Bozorov O. O‘zbek tilida darajalanish: Filol.fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 1997. – B.152.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B.186.
4. Orifjonova SH. O‘zbek tilida lug‘aviy graduonimiya: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 1996.– B.7-10.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “YU” harfi. – B. 423. www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. Hojiev A. O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati. – Toshkent, 1963. – B.51.
7. Oxford Dictionary of English and Concise Thesarius